

TA'LIM MUASSASALARIDA SIFAT MENEJMENTI TIZIMI

TAKOMILLASHTIRISH

Turdaliyev Zulfiqor Baxromovich

Surxondaryo viloyati

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
tadqiqotchi pedagog*

Annotatsiya. Sifat menejmenti ta'lism sifatini oshirish, talabalar qoniqishini ta'minlash va muassasalar samaradorligini kuchaytirish uchun muhimdir. Maqolada muassasalar orasida sifat nazoratining zaif jihatlari aniqlanib, xalqaro tajribaga asoslangan takliflar keltiriladi. So'rovnoma va intervyyu natijalari asosida sifat menejmenti tizimining o'ziga xos muammolari va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar. Ta'lism tizimi, menejment, sifat menejment, ichki nazorat

Аннотация. Управление качеством важно для улучшения качества образования, обеспечения удовлетворенности студентов и повышения эффективности учебных заведений. В статье выявляются слабые стороны контроля качества среди учреждений и даются предложения, основанные на международном опыте. По результатам анкетирования и интервью разработаны конкретные проблемы системы менеджмента качества и рекомендации по их устранению.

Ключевые слова. Система образования, менеджмент, менеджмент качества, внутренний контроль

IMPROVEMENT OF THE QUALITY MANAGEMENT SYSTEM IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Turdaliyev Zulfiqor Bakhromovich

Surkhandarya region

*Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
research pedagogue*

Abstract. Quality management is important for improving the quality of education, ensuring student satisfaction and increasing the efficiency of institutions. The article identifies weak aspects of quality control among institutions and makes suggestions based

on international experience. Based on the results of the survey and interviews, specific problems of the quality management system and recommendations for their elimination were developed.

Key words. Education system, management, quality management, internal control

Kirish. Ta'lim muassasalarida sifat menejmenti tizimi ta'lim sifati va talabalar qoniqishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bu tizim ta'lim jarayonidagi resurslarni samarali boshqarish, ta'lim jarayonidagi jarayonlar va natijalarni tahlil qilish, va uzlusiz takomillashtirish uchun javobgardir. Shu bilan birga, ko‘p hollarda ta'lim muassasalarida sifat menejmenti tizimlari yetarlicha rivojlanmagan, bu esa o‘quv jarayonida ma'lum muammolarni keltirib chiqaradi. Oqibatda, muassasalar samaradorligining pasayishi va talabalarning ta'lim jarayonidan noroziligi kuzatiladi.

Maqolada ta'lim muassasalarida sifat menejmenti tizimining mavjud kamchiliklarini aniqlash va ularni takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqish maqsad qilib qo‘yilgan. Xalqaro tajriba va zamonaviy boshqaruv usullariga asoslanib, talaba va o‘qituvchi qoniqishini ta‘minlashga yordam beruvchi usullarni ko‘rib chiqish maqsad qilingan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, ta'lim muassasalari uchun xalqaro standartlarga mos keluvchi sifat menejmenti tizimini joriy qilish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Ta'lim sifatini oshirish va talaba qoniqishini ta‘minlash uchun samarali sifat menejmenti tizimini joriy qilish ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biridir. Sifat menejmenti tizimi samarador ta'lim jarayonini yaratishga yordam beradi, shuningdek, ta'lim muassasalarida barqaror rivojlanishni ta‘minlaydi. Talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi aloqani kuchaytirish, sifatni nazorat qilish tizimlarini takomillashtirish orqali ta'lim muassasalari samaradorligini oshirishga erishish mumkin.

Tadqiqo metodologiyasi. Tadqiqotda sifat menejmenti tizimlarini tahlil qilish uchun turli metodlardan foydalanildi. Birinchi navbatda, ilmiy adabiyotlarni o‘rganish orqali ta'lim muassasalarida sifat menejmentining o‘rni va ahamiyati haqida chuqur bilimlar olindi. Keyinchalik, sifat menejmenti tizimining amaliyotini tahlil qilish uchun muassasalarda so‘rovnama va intervylular tashkil qilindi.

Natijalar. So‘rovnama va intervyu natijalari shuni ko‘rsatadiki, aksariyat ta’lim muassasalarida sifat menejmenti tizimining zaifligi kuzatilmoqda. Bu, asosan, ichki nazorat mexanizmlari rivojlanmaganligi, sifatni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan samarali aloqa imkoniyatlari yetishmasligi va muassasalarning xalqaro standartlarga mos kelmasligi bilan bog‘liq.

Muassasalar orasida, talaba va o‘qituvchi qoniqishini ta'minlaydigan, sifat menejmenti tizimlarining yuksak darajada tashkil etilmaganligi aniqlandi.

Muassasalarning sifat menejmenti tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish uchun ichki sifat nazorat tizimini joriy qilish talab etiladi. Bu jarayonda o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida aloqa mexanizmlarini mustahkamlash, ochiq fikr-mulohaza berish imkoniyatlarini oshirish, shuningdek, muassasa ichida muntazam tarzda sifat nazorati o‘tkazish lozim. Bu talaba va o‘qituvchilar qoniqishini oshirishga va ta’lim sifati yaxshilanishiga yordam beradi.

Xalqaro standartlarga asoslangan sifat menejmenti tizimlari talaba va o‘qituvchilarning ta’lim jarayonidagi ishtirokini kuchaytiradi. Bunday tizimlar talabalar qoniqishini oshirib, ularning ta’limdan noroziligini kamaytirishi mumkin. Shuningdek, sifat nazorati jarayonini rivojlantirish ta’lim muassasalari samaradorligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Bu nafaqat ta’lim jarayonining o‘ziga, balki muassasaning umumiy reytingiga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Natijalar tahlili. Natijalar xalqaro tajribalar bilan taqqoslandi va umumiyl o‘xshashliklar aniqlandi. Xalqaro ta’lim muassasalarida sifat menejmenti tizimining rivojlanishi asosiy ahamiyat kasb etadi, bunda asosan talaba va o‘qituvchilar o‘rtasidagi aloqa, ochiq fikr bildirish imkoniyatlari, va doimiy ravishda jarayonlarni kuzatish tizimlariga katta e’tibor qaratiladi. Tadqiqotda aniqlangan muammolar xalqaro tajribaga asoslanib takomillashtirilgan tavsiyalar yordamida hal qilinishi mumkin.

Tadqiqotning ayrim cheklovları mavjud. Jumladan, tadqiqot kichik namunalar asosida o‘tkazilgani sababli, natijalar keng miqyosda umumlashtirilishi qiyin. Bundan tashqari, ayrim ta’lim muassasalarida sifat menejmenti tizimining o‘zgacha xususiyatlari

tadqiqot jarayoniga ta'sir qilgan bo'lishi mumkin. Keyingi tadqiqotlarda kengroq namunalar va turli ta'lim muassasalari turlari qamrab olinishi lozim.

Xulosa. Sifat menejmenti tizimini takomillashtirish orqali ta'lim muassasalari samaradorligini oshirish va talaba qoniqishini ta'minlash mumkin. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, xalqaro sifat standartlariga asoslangan tizimlar ta'lim sifatini oshirish va muassasalarda talabalar va o'qituvchilar uchun samarali ta'lim muhiti yaratishda muhim rol o'yнaydi. Ta'lim muassasalarining ichki nazorat tizimlarini rivojlantirish va talaba o'qituvchi munosabatlarini yaxshilash orqali ularning sifat menejmentini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Adabiyotlar ro'yhati.

1. Bolliyev Sh. T. Oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini takomillashtirish. Orient Renaissance: Inovation, eductionla, natural and social sciences. 3(6) 2023
2. Ismatullayev P.R., Axmedov B.M., P.M.Matyakubova, G'.X.Xamroqulov, Sh.A.Turayev Sifat menejmenti tizimi va uni sertifikatlash. 2014
3. M.A.Maxkamova, Dj.Kusharbaev Ta'lim sifati innovatsion menejment. O'quv qo'llanma. 2022
4. Saidqulova F. Mamlakatimiz Oliy ta'lim muassasalarida sifat menejmentidan foydalanishning konseptual asoslari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024